

Temuriylar davri tarixidan: Abdurahmon Jomiy va uning "Haft avrang" asari haqida

Mavlono Nuriddin Abdurahmon ibn Jomiyning hayoti, deyarli butun XV asrni o'z ichiga olgan. Buyuk tojik-fors shoirining ijodi u yashab o'tgan davr hayoti, adabiyoti, falsafasi hamda madaniyatining eng zid oqimlarini qamrab olgan eng yorqin ifodasi hisoblanadi.

Abdurahmon Jomiy o'z davrining buyuk insonparvari bo'lib, hunarmand, dehqon, san'at namoyondasi kabi oddiy insonlar muhabbati himoyachisi, ustoz va chinakam do'st o'rnida qozona olgan.

U hayotligidayoq zamondoshlari va Temuriylar avlodi vakillari orasida tanilgan. Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida shoirlarning yo'l boshchisi va rahbari bo'lgan. Jomiyning obro'si shu qadar buyuk ediki, O'rta Osiyo, Xuroson, Eron, Kavkaz orti, Turkiya va Hindistonda ham mashhur bo'lib, hatto o'z davrining eng yirik shaxsi, eng buyuk shoiri va ustoz, nuroniysi va murabbiysi deb hisoblangan. Biroq, shunga qaramay, buyuk shoir o'ziga va yashash tarziga nisbatan juda talabchan, kundalik yashash tarzi ziroatchi va hunarmandlarniki kabi juda odmi bo'lgan. Shoirning zamondoshlari asarlarida Jomiyning hayoti, qahramonliklari bilan bog'liq ko'plab o'ziga xos hikoyalar bor.

Abdurahmon Jomiy hayotligida omma e'tirofini qozongan, jamiyat, ilm-fan, falsafa, san'at, shoirona so'zlash mahoratida baobro' inson bo'lgan. Bularning barchasiga buyuk Jomiy nomini asrlarga muhrlab qo'ygan uning umuminsoniy shoirona merosi sabab bo'lgan bo'lib, mahorati qarshisida nafaqat Sharqning ma'rifatparvar donolari, balki sharqiy davlatlarning mag'rur hukmdorlari ham bosh eggan.

Fors she'riyatidagi eng samarali mualliflardan biri Mavlono Abdurahmon Jomiy o'zidan so'ng buyuk she'riy meros qoldirdi. U «Haft avrang» ("Yetti taxt") nomli romantik va so'fiy-falsafiy dostonlar to'plamini yaratdi. An'anaviy g'azallar, ruboiy, she'riy bamlardan iborat uchta devon yaratgan, devonlar ijodkorning hayoti bosqichlariga ko'ra ajratilgan va Alisher Navoiyning taklifiga ko'ra uchta devon Amir Husrav Dehlaviyning namunasiga ko'ra nomlangan — "Yoshlikning birinchi qismi", "Shoda orasidagi o'rtacha marjon", "Hayot xotimasi". Jomiyning eng yirik shoirona asari "Haft avrang" ("Yetti taxt") hisoblanadi. U doston majmualaridan iborat yetti qismdan iborat:

1. "Solomon va Absal" (1480-1481).
2. "Olijanoblarga tortiq" (1481-1482);
3. "Taqvodorlar tasbehi" (1482-1483);
4. "Yusuf va Zulayho" (1485);
5. "Layli va Majnun" (1485-yil yakunlangan);
6. "Iskandarning donishmandlik kitobi" (1485);
7. "Oltin zanjir" (uning uchinchi qismi muallif hayotining har xil davrlaridan tashkil topgan);

Hozirda mazkur asarning bir qo'lyozmasi O'zR FA Temuriylar tarix davlat muzeyining ekspozitsiyasidagi noyob eksponatlaridan biri hisoblanadi.

